

IBRATLI HOSIL BAYRAMI

Xolbutayeva Shahnoza Jumanazar qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Xotijiy til va adabiyot

3-kafedra 2-bosqich 2403-guruh tabalasi

E-mail: xolbutayevashahnoza776@gmail.com

Tel: +998-94-776-19-02

Har yili erta kuzda maktabimizda Hosil bayramini butun sinfdoshlarimiz va ustozlarimiz bilan birgalikda katta xursandchilik bilan nishonlaymiz. Ona tili fani o'qituvchimiz Munisa opa bizga doimo shunday deydilar:

— Hosil bayrami — bu shukronalik bayrami, unda hamma birlashadi, mehnat qilganlar qadrlanadi, tabiatga, yerga, rizqqa hurmat bildiriladi. Bayramga tayyorgarlik ko'rishda faqat o'z sinfimiz emas, boshqa sinflardagi do'stlarimiz ham biz bilan birga yelkama-yelka mehnat qilishdi. Hammamiz bir maqsadda — bayramni chiroyli o'tkazish uchun harakat qildik. Bu yilgi Hosil bayrami oldidan yakshanba kuni sinfimiz bilan Farhod otaning bog'iga yordam berishga bordik. Bog' nihoyatda katta va mevali daraxtlar esa ko'p edi. Ishni osonlashtirish uchun uni ikki guruhgan bo'lingan holda, jamoalarga ajralib qilishga tushdik. Ra'no va Jamshid — mevalarni terishdi, men va Bahora — poliz ekinlarini yig'dik, qolgan sinfdoshlarimiz esa savatlarga joylash, sabzavot va mevalarni tashish va bog'ni tozalash ishlari bilan shug'ullanishdi. Har kim o'z ishini e'tibor bilan, chin dildan bajarishga harakat qilardi. Quyosh nurlari ostida qatorlab terilgan qovunlar va tarvuzlar xuddi oltindek porlab turardi. Ish vaqtida Farhod ota bizga chin dildan yordam berdi, doim yonimizga kelib kamchiliklar yo'qmi bolajonlar? qiynalmayapsizlarmi deb so'rab turardilar. Ishlarimizni hammasini a'lo darajada tugatdik Farhod ota esa bizni polizdan uzilgan shirindan - sharakar qovunlari bilan mehmon qildi, bizga ajoyib ertaklar ham aytib berdilar. U "Qarg'a va Qovun" haqida ertak edi.

Qarg'a va qovun

Qadim zamonda bir dehqon bobo bo'lgan ekan. U har yili mehnat qilib, bog'ida qovun ekar, ularning har birini mehr bilan parvarishlarkan. Qovunlari shunchalik shirin va katta bo'lgan ekanki, hatto qushlar ham o'sha qovunlarga ko'z olaytira boshlabdi. Bog' chekkasidagi katta daraxtda esa bir qarg'a yashar ekan. U har kuni qovunlarga qarab suqlanar, lekin sabr qilolmay nihoyat bir kuni dehqon dalada yo'qligida bir qovunni teshib yebdi. Ertasiga dehqon kelib qarasa — bir qovun teshib yeb qo'yilgan. Hayron qolib, o'zicha chora o'ylabdi. Bir chetga qum solib, ustiga eng shirin qovunni qo'yibdi. Chunki qummi kim bosib o'tsa, izi qoladi.

Ertalab qarg'a yana uchib kelib, o'sha qovunni yebdi. Qumga esa aniq izlari tushib qolibdi. Dehqon buni ko'rib, daraxtdagi qarg'aga qarab aytibdi:

— Ey qarg'a, bu sening ishing. Nega o'g'rilik qilding?

Qarg'a esa jahli chiqib:

— Menmi?! Men hech nima yeganim yo'q! Balki sichqon, balki quyon bo'lgandir! — debdi.

Ammo shamol birdan esib, qarg'aning tumshug'idan qovun urug'i tushib ketibdi. Dehqon uni ko'rib:

— Mana, endi nima deysan? Urug' o'zi tushib qoldimi? Bu sening ishing!

Qarg'a boshini egib, xijolat bo'libdi:

— Ha, rost. Men yeb qo'ydim. Kechiring. Juda shirin edi... sabr qilolmadim.

Dehqon unga achinib:

— O'g'rilikdan ko'ra, so'rab olganing yaxshi. Aybni tan olish — bu jasurlikdir, — deb nasihat qilibdi.

U haqida butun qushlar eshitibdi, o'rmondagi barcha jonivorlar uni og'ri deb atay boshlabdi, afsuski kech bo'lgan edi. Shundan keyin qarg'a qilgan o'g'irligidan boshi egilibdi va boshqa hech qachon o'g'rilik qilmaydigan bo'libdi. Yomon odatini tark etib har doim dehqonga qovun urug'larini qadashda yordam beradigan, dehqondan ruxsat so'raydigan, dehqon esa uning qilgan mehnati evaziga unga har doim bitta qovunni ajratib beradigan bo'libdi ekan.

Farhod ota ertakni aytib bo'lganidan, bizga qovun kesib berdi. U ham ertakdagi kabi shirin edi. Ishdan charchagan bo'lsak-da, o'sha lahza — qovunning hidi, ertakdagi saboq va birgalikdagi quvonch — bizning Hosil bayramimizni yanada mazmunli qildi.

Ertak shunchalik qiziq bo'ldiki, qovunlarni qanday qilib yeb qo'yganimizni ham bilmay qoldik, hamma quloq solib qolgan, Farhod ota bizga qarab, kulib dedi:

— Voy bolalar-ey, mening ertagim sizlarga yoqdimi aqilli bolalar, deb bizni duo ham qilib qo'ydilar. Men bunday chaqqon, tartibli bolalarni ko'rmagandim!

Bu gapdan keyin hammamiz quvonchdan kulib yubordik. Farhod ota yana kelinglar sizlarni mehmon qilaman deb rahmat aytib qoldilar. O'sha kun biz nafaqat hosil terdik, balki birlik-birdamlik, mehnat, va ertaklarning qadrini ham yana bir bor angladik.

Mehnat bilan bo'ladi shodlik,

Halollikda bordir haqiqiy soflik

Bilib oling asl bolajon

Oltin hosildorlik bu bizning boylik.